

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|   |                  |
|---|------------------|
| <b>A.Shernazarov, X.Jamolova</b>  |                  |
| “BOBURNOMA”ning forscha misralari .....   | 91               |
| <b>S.Halimov</b>  |                  |
| E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi .....  | 95               |
|   | TILSHUNOSLIK     |
| <b>Z.Akbarova, M.Buvajonova</b>   |                  |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....  | 100              |
| <b>G.Davlyatova</b>   |                  |
| Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....  | 103              |
| <b>B.To'rayeva</b>  |                  |
| Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....   | 107              |
| <b>Z.Alimova, S.Gafurova</b>  |                  |
| “SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida .....  | 114              |
| <b>G.Raximova</b>   |                  |
| Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar .....  | 120              |
| <b>J.Ibragimov</b>  |                  |
| Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi .....   | 123              |
| <b>N.Xasanboyeva</b>  |                  |
| Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari .....  | 127              |
| <b>D.Ganiyeva, D.Ismoilova</b>  |                  |
| Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari .....  | 130              |
| <b>M.Qurbonova</b>  |                  |
| O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi .....  | 134              |
| <b>L.Masharipova</b>  |                  |
| Til va madaniyat .....  | 139              |
| <b>Sh.Jumaqulova</b>  |                  |
| O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi .....  | 144              |
| <b>X.Maripova</b>   |                  |
| Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari .....  | 147              |
| <b>A.Mattiyev</b>   |                  |
| Ravish tasnifiga doir yondashuvlar .....  | 151              |
| <b>A.Yuldashev</b>  |                  |
| So'z ma'nosi xususida.....  | 154              |
| <b>D.Gaziyeva</b>   |                  |
| Funksional va stilistik jihatdan media tili .....   | 159              |
| <b>U.Yokubbayeva</b>  |                  |
| “Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasining semantik takomili.....   | 164              |
| <b>N.Umarova, M.Abdulimova</b>  |                  |
| Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari .....  | 170              |
|   | MATEMATIKA       |
| <b>A.Xasanov, I.Jalilov</b>   |                  |
| $F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi ..... | 173              |
| <b>D.Usmonov, A.Urinov</b>  |                  |
| Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar .....   | 185              |
|   | FIZIKA – TEXNIKA |
| <b>M.Maxmudova, Sh.Shuxratov</b>  |                  |
| Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....   | 193              |

## SO‘Z MA‘NOSI XUSUSIDA

## О ЗНАЧЕНИИ СЛОВА

## ON THE MEANING OF THE WORD

Yuldashev Anvarjon Mahammadjonovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Yuldashev Anvarjon Mahammadjonovich– Marg‘ilon shahar XTB tasarrufidagi  
24-umumta‘lim maktabi amaliyotchi psixologi.  
FarDU mustaqil izlanuvchisi.**Annotatsiya**

So‘z o‘ta serqirra va serjilo til (nutq) birligi bo‘lganligi bois uning hayotimizdagi o‘rni beqiyos ekanligi va hozirgi globallashuv, ilm-fan taraqqiyoti davrida so‘zning ma‘no ifodalashi, nominativ funksiyasining muhim ahamiyati, unga berilgan ilmiy ta‘rif va talqinlar tasnifi o‘ziga xos lisoniy nuqtayi nazardan tahlil etish ushbu maqoladan ko‘zlangan bosh maqsad hisoblanadi. Maqolada so‘z va uning mantiqiy imkoniyatlarini chuqur o‘rganish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida milliy yuksalish shartlari hamda tilimizga oid ilmiy tadqiqotlar faoliyatining samarasi kelajagimizni belgilab beruvchi asosiy omil ekanligi ta‘kidlanadi. Lingvistik jihatdan mazkur nutq birligi tadqiqida so‘zning semantik xususiyatlari, semantik maydon qamrovi, onomastik holati, ma‘no yoki tushuncha ifodalashdagi denotativ va konnotativ funksiyalari, mazkur funksiyalarning signifikativ va struktural shakllari tahlil qilinadi.

**Аннотация**

Поскольку слово является очень разнообразной и сложной языковой (речевой) единицей, его роль в нашей жизни уникальна, а в условиях современной глобализации развитие науки раскрывает значение слова, значение его номинативной функции, классификацию научные определения и толкования анализируются с специфической лингвистической точки зрения, что является основной целью статьи. В статье подчеркивается, что углубленное изучение слова и его логических возможностей является ключевым фактором развития нового Узбекистана, условий национального роста и эффективности научных исследований нашего языка. В лингвистическом плане при изучении данной речевой единицы анализируются семантические свойства слова, охват семантического поля, ономастическое состояние, денотативные и коннотативные функции в выражении значения или понятия и структурные формы этих функций.

**Abstract**

Because the word is a very diverse and complex language (speech) unit, its role in our lives is unique, and in the current era of globalization, the development of science, the meaning of the word, the importance of its nominative function, the main purpose of this article is to analyze the classification and interpretations from a specific point of view. The article emphasizes the in-depth study of the word and its logical possibilities. In other words, the conditions of national development in Uzbekistan and the effectiveness of scientific research on our language are the main factors determining our future. Linguistically speaking, the study of the unit of speech analyzes the semantic properties of the word, 4semantic field coverage, onomastic state, denotative and connotative functions in the expression of logic or concept, signifiable and structural forms of these functions.

**Kalit so‘zlar:** so‘z, nutq, birlik, talqin, semantika, onomastika, denotativ, konnotativ, signifikativ, polisemiya, kontekst.

**Ключевые слова:** слово, речь, единица, интерпретация, семантика, ономастика, денотатив, коннотатив, сигнификатив, полисемия, контекст.

**Key words:** word, speech, unity, interpretation, semantics, onomastics, denotative, connotative, significative, polysemy, context.

**KIRISH**

Ilm-fan taraqqiyoti va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarning, iqtisodiy jarayonlarning misli ko‘rilmagan tarzda tezlashuvi deyarli barcha sohaga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Kishilik jamiyati glaballashuv jarayoni bilan yuzma-yuz kelib, turli sohalarda yuzaga kelayotgan yangilik, kashfiyot va innovatsiyalarni idrok etish bilan birga ulardan unumli foydalanish jarayoni avj olmoqda. Insoniyat tarixida yuzaga kelgan hamda kashf etilgan barcha narsa va hodisalar borki, ular o‘z ma‘no va tushunchasiga ega bo‘lishi, mazkur ma‘no va tushunchalar esa so‘z orqali ifodalanishi tabiiy holdir. Dunyodagi jamiki narsa, hodisa, holat, harakat, munosabat, intellektual kashfiyot, sun‘iy va tabiiy intellekt, moddiy va ma‘naviy ne‘mat sifatida ijtimoiy borliq hamda ijtimoiy ong mahsuli kabilar o‘z ma‘no va tushunchasiga, o‘z vaqtida ular esa biror bir so‘z bilan ifodalanuvchi o‘z nomiga ega. Muqaddas kitoblarda ta‘kidlanganidek, butun borliqning avvali va oxiri nom – so‘z

## TILSHUNOSLIK

bilandir. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ilm-fan rivoji asosida umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasini mustahkamlash, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini amalga oshirish hamda milliy til siyosatini taraqqiy ettirish yo'lida har jihatdan milliy tilimizni ilmiy tadqiq etuvchi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi lisoniy izlanishlarning o'rni muhimdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Dunyo tilshunosligi kabi o'zbek tilshunosligi tarixida ham so'z va uning o'ziga xos xususiyatlariga oid olib borilgan ilmiy izlanishlar juda uzoq tarixga ega. Biroq, o'zbek tili tizimida so'zni leksik birlik sifatida o'rganish va alohida bo'lim sifatida leksikologiyaning ilmiy tadqiq qilinishi XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. O'zbek tilshunosligida so'z, ya'ni o'zbek tili leksikasining taraqqiyoti, tarixiy ruvoji va qatlamlari, tilimizda mavjud umumturkiy, o'zbek, fors, tojik, arab va rus kabi tillardan o'tib o'zlashgan so'zlarning o'rni haqida dastlabki ma'lumot va ilmiy tadqiqotlar tilshunos olim Faxri Kamolga tegishli ekanligini professor A.Nurmonov alohida ta'kidlaydi [1,232]. Shuningdek, o'zbek tili so'zlarining tarixiy qatlamlari va har bir qatlamni o'rganishga bag'ishlangan maxsus yondashuv tilshunos olim E.Begmatov [2,5] tomonidan, o'zbek tilida so'zlarning ma'no va ayniqsa, ko'chma ma'no jihatlarini chuqurroq o'rganish, ularning lingvistik mohiyatini batafsil izohlashga tilshunos olimlar G.Qobuljonova [3,4], R.A.Suyunovaning [4,8] tadqiqotlarini e'tirof etish zarur.

Lingvistikada so'z va uni ilmiy jihatdan o'rganish alohida o'rin egallaydi. So'z lisoniy jihatdan til va nutqning eng muhim, asosiy va markaziy birligi sifatida qaraladi. Til va nutqning o'ziga xos bo'lgan ko'plab xususiyat va hodisalarini tilshunoslik jihatidan o'rganish so'zni ilmiy tadqiq etish bilan boshlanadi. Nutq birligi bo'lgan so'z nutq faoliyati bilan bevosita bog'lanadi, nutq jarayonida voqelanadi. Shuning uchun so'z nutq birligi, nutq "boyligi" hisoblanadi. So'z har jihatdan real birlik, xususiylik, aniqlik sifatida mavjud bo'ladi. Boshqacha izohlaganda, "Leksema – til birligi sifatida tayyor va turlicha imkoniyatlar majmuasi bo'lsa, so'z uning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi" [13,141]. Demak, leksema va so'z umumiylik hamda xususiylik dialektikasi bilan bog'langan bo'lib, so'z xususiylik sifatida umumiylikning – leksemaning amaldagi ko'rinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir. So'zda til va nutqning ikki asosiy tomoni, ya'ni ifoda – tovush jihati va mazmun – ma'no tomoni namoyon bo'ladi. Aynan so'zning turli shakldagi ma'no tomonlari lingvistikada semantik jihatdan tadqiq etiladi.

Til va nutqning asosiy birligi bo'lgan so'zning ma'no hamda funksiyalari haqida fikr yuritish, mushohada qilish lisoniy tadqiqotlarga qiziqqan har qanday falsafiy yo'nalishlarga xos bo'lgan xususiyatdir. Shu nuqtayi nazardan nemis tilshunos olimi X.Kronasser semantika tarixiga bag'ishlangan asarida qadimgi yunon falsafasi namoyondalaridan Platon (miloddan avvalgi 427-347 yy.) va Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yy.) ijodida ma'no mohiyati tasnifi va talqiniga bo'lgan ilk urinishlar kuzatilishini ta'kidlab o'tadi [8,18].

Til inson ongi va tafakkur qobiliyatini shakllantiradigan hamda tinimsiz boyitadigan manba sifatida mashhur tilshunos olim, Jeneva tilshunoslar maktabining asoschisi Ferdinand de Sossyurning til haqidagi "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir" ta'rifini yodga olamiz [12,23]. Mazkur ta'rifda urg'u berilgan "tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar" – nutqning asosiy birligi sifatida ma'no ifodalovchi so'z va so'zlar ekanligini yana bir bor ta'kidlash zarur. So'zning ifoda qudrati, imkoniyatlari va borliqni nomlashdek yuksak ahamiyati doimo ilm egalarining diqqat markazida bo'lib kelgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

So'zning ma'no jihati haqida fikr bildirishdan avval, har bir tilda "ma'no" so'zi uchun keltirilgan izohlar va ularning talqin qilinishidagi farqlar mavjudligini, ayrim tillarda mazkur tushuncha ikki xil ma'noda qo'llanilishi uchrasa, boshqa tillarda uch va undan ortiq ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Aytaylik, o'zbek tilida ushbu tushuncha quyidagicha izohlanadi: "Ma'no - [mazmun, tushuncha, g'oya]: 1. So'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha...2. *aynan*.mazmun. 3. Ba'zi xatti-harakat va shunga ko'ralardan anglashiladigan narsa; ifoda... 4. Biror narsaning mohiyati, nima ekanligi; mohiyat..." [14,566].

So'zning ma'no ifodalashini lisoniy sathda tadqiq qilishda mazkur lingvistik holatning keng va tor qamrovligi, so'zning leksik va grammatik ma'nolarini farqlash, o'z va ko'chma ma'no turlarining sathi, so'zning semantik maydoni, so'zning ma'no ifodalashdagi denotativ va konnotativ funksiyalari batafsil izohlanadi.

Soʻzning nutq faoliyatidagi asosiy vazifasi atash, nomlash, yaʼni nominativ vazifa boʻlib, u obyektiv borliqdagi turlicha muayyan narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, harakat-holatlar, belgi-xususiyatlar bilan bogʻlanadi, ularni ifoda etadi, anglatadi, ular haqida muayyan maʼno, tushuncha beradi. Soʻzlarning atash, yaʼni nominativ funksiyasi nominatsiya nazariyasi, nomshunoslik yoki onomasiologiyada oʻrganiladi [5,68]. Lingvistik adabiyotlarda ilmiy jihatdan onomasiologiya – “leksikologiyaning lugʻaviy birliklarini nomlash va tushuncha anglatish prinsiplari va qonuniyatlarini oʻrgatuvchi boʻlim” tarzida izohlanib, onomastika – “(lotincha “onuma” – “nom” soʻzidan olingan) nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shugʻullanuvchi tilshunoslik boʻlimi” sifatida taʼriflanadi [9,81].

Soʻz maʼnosining ifodalanishida uning narsa va tushuncha bilan bogʻliqligi yuzasidan qarashlar lingvistikada keng ommalashgan. Bu jihatdan soʻz maʼnosining narsaga, tushunchaga va boshqa soʻz maʼnosiga munosabati tufayli uning funksiyasi ham farqlangan. Natijada soʻz maʼnosining denotativ, signifikativ va struktural funksiyalari shakllangan. Masalan, soʻz maʼnosining asosiy funksiyalari sifatida: maʼno<sub>1</sub>- narsa<sub>1</sub>(yoki maʼno<sub>2</sub> – narsa<sub>2</sub>) – denotativ funksiya; maʼno<sub>1</sub>-tushuncha<sub>1</sub>(yoki maʼno<sub>2</sub> – tushuncha<sub>2</sub>) – signifikativ funksiya; maʼno<sub>1</sub>– maʼno<sub>2</sub> (yoki maʼno<sub>2</sub> – maʼno<sub>1</sub>) – struktural funksiya tarzida izohlanadi [6,72]. Aslida soʻzlar maʼno ifodalashiga koʻra turli strukturaviy tuzilishlarga egadir. Shu tufayli soʻzning narsa va tushuncha bilan bogʻlanishiga shartli ravishda yondashmoq zarur. Chunki barcha soʻzlar ham narsa, hodisa yoki belgi nomini anglatmaydi, yaʼni hamma soʻzlar ham atash, nominativ funksiyasiga ega emas. Soʻzlar ichida otlar (narsa), feʼllar (harakat), sifatlar (narsa belgisi) va ravishlar (harakat belgisi) maʼno ifodasiga koʻra atama, nomlash funksiyasini bajaradi. Biroq, yordamchi soʻzlar oʻz ifodasiga koʻra nominativ funksiya bajarmaydi. Bu xususda tilshunos olim N.Uluqov mustaqil va yordamchi soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi, nominativ funksiyasi va morfologik holati yuzasidan ularning oʻzaro farqlarini quyidagicha izohlaydi:

1. Mustaqil soʻzlarning xususiyatlari: lugʻaviy maʼnoga ega; nominativ vazifa bajaradi; morfologik jihatdan oʻzgaradi; gapda mustaqil holatda gap boʻlagi boʻlib kela oladi.

2. Yordamchi soʻzlarning xususiyatlari: lugʻaviy maʼnoga ega emas; turli yordamchi maʼno va vazifalarda qoʻllanadi; morfologik jihatdan oʻzgarmaydi; gapda mustaqil gap boʻlagi vazifasida kela olmaydi [10,140].

Yuqorida bildirilgan fikrlarga koʻra, nutqdagi maʼno ifodalovchi soʻzlarning barchasini shartli deb olish ham munozaralidir. Tilshunos olim S.Moʻminov bu xususida “... Tildagi ramzlar (nomlar)ning hammasi yoppasiga shartli boʻladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Har bir yangi tushunchani ifodalash uchun mavjud soʻzlardan u yoki bu maʼnoda foydalaniladi. Ammo yangi tushunchani ifodalash uchun tanlangan soʻz tasodifiy emas. U yangi tushuncha va mavjud soʻz oʻrtasidagi qonuniy aloqa tufayli sodir boʻladi... Umuman olganda, har bir soʻz oʻziga xos leksik maʼno anglatadi va bu maʼno ifodalovchining mohiyatini u yoki bu darajada namoyon etish uchun xizmat qiladi” deb yozadi [11,44].

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, soʻzlar asli oʻz xususiyatida ustun boʻlgan nominativ funksiyasiga koʻra nutqimizda mavjud boʻlgan nomlar hisoblanadi. Soʻzlar asosiy yoki toʻgʻri va koʻchma maʼnoda keladi. Soʻzning asosiy yoki toʻgʻri maʼnosi bevosita shu soʻzning atama – nominativ funksiyasi bilan bogʻliq boʻladi. Asosiy yoki toʻgʻri maʼnoli soʻz negizida koʻchma maʼnoli soʻzlar paydo boʻladi. Natijada bir xil maʼno yoki tushunchani, narsa yoki hodisani ifodalayotgan soʻz, boshqa bir narsa yoki hodisani ifodasi uchun qoʻllana boshlaydi. Soʻzning koʻchma maʼnolarda qoʻllanilishi barcha tillar uchun xosdir. Odatda, lisoniy jihatdan soʻz maʼnosining koʻchish usuli metafora, metonimiya, sinekdoxa va funksional koʻchish kabilarni oʻz ichiga oladi.

Soʻzlar bir-biriga oʻxshashligi, yaqinligi va nutq jarayonida qoʻllanilishiga koʻra maʼnolarini oʻzgartirishi, soʻzga qoʻshimcha maʼnolar yuklanishi ham mumkin. Bu holat lisoniy jihatdan koʻp maʼnoli soʻzlar sathini yuzaga keltiradi. Koʻp maʼnoli soʻzning har bir maʼnosi boshqa soʻzlarning maʼnolari bilan aloqaga kirishadi. Lingvistik jihatdan soʻz leksik maʼnosining kengayishi natijasida koʻp maʼnoli soʻzlar paydo boʻladi. Soʻzlarning koʻp maʼnoli boʻlish holati lingvistikada polisemiya atamasi bilan yuritiladi.

Soʻz maʼnolari haqida keng qamrovli fikr yuritar ekanmiz, tilda leksik maʼnolar doimiy ravishda oʻzaro munosabatda boʻlishini nazarda tutishimiz lozim. Aynan shu munosabatlar sabab maʼno ifodalashiga koʻra soʻzlar shakldosh, maʼnodosh va maʼnolari zid boʻlishi mumkin. Mazkur

## TILSHUNOSLIK

lisoniy jarayon omonim, sinonim, antonim va paronim kabi lingvistik hodisalarni o'rtaga chiqaradi [7,93].

So'zlarning nutq jarayoni yoki matnda qo'llanilish o'rni **kontekst** deb ataladi. So'zning ifoda va mazmun jihatlari, uning alohida ma'nolari nutq jarayonida yoki kontekstda oydinlashadi, aniqroq va batafsil ochiladi [5,74]. Kontekst lingvistikada **nutqiy matn** tarzida ham izohlanadi. Nutqiy matn - mazmun jihatidan tugallikka ega bo'lgan, o'z tarkibidagi so'z ma'nolarini belgilashga imkon beradigan nutq parchasi. Bunday nutq parchasi tarkibidagi so'zlar biri boshqasi uchun qurshov vazifasini [15,72], ayni vaqtda so'zning ifodalovchi ma'nosini vaziyat, vaqt, sharoit va o'rni bilan to'liq ochib berish funksiyasini bajaradi. Tilshunos olim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi Azim Hojiyev o'z ilmiy tadqiqotlarida yuqoridagi holatni izohlar ekan, so'zning nutqiy matnga bog'liq holda hosil bo'ladigan va yuzaga chiqadigan ma'nosini **matniy ma'no** tarzida ham qo'llaydi [15,61].

Ma'no ifodalashdagi aniqlik nutqda so'z qo'llash me'yorlariga amal qilishdan iborat. Har bir so'zning o'z qamrovi, ishlatilish va qo'llash o'rni mavjud. Garchi ular ma'nodosh so'zlar bo'lsa ham, har birining o'z joyi bor. Aynan ma'lum bir so'zning ma'no ifodalashdagi qamrovi, qo'llash o'rni va joyi yuqorida tilga olinganidek, kontekst bilan oydinlashadi.

So'z nutq hosil qilishning bosh omili. Shuning uchun ham, so'zning xarakterini, xususiyatlarini, ifodalovchi yoki anglatuvchi ma'no darajasini yaxshi bilish lozim. So'zlar ma'nodoshligi, shakldoshligi, zidligi, talaffuzdoshligi, dublet va variantligi, shuningdek, ko'p ma'noliligi, to'g'ri va ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi bilan bir-biridan farqlanadi. So'z ma'nolarini puxta o'rganish faqat fikr yetkazish yoki fikrni qabul qilish uchungina emas, balki so'z ifodalayotgan ma'noning ommaga, ko'pchilikka - jamiyatga yetib borishda maqsadga erishish yo'lidagi o'ziga xos ta'sirchanligi, ekspressiv va emotsionalligiga ham xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlil va misollardan shu narsa ayon bo'ladiki, ma'lum bir so'zning ma'nosini aniqlash yoki belgilash ma'lum bir lug'atlar kesimida keltirilgan lug'aviy ma'nolar bilan chegaralanib qolmasdan, mazmun, kontekst, ko'lam doirasi, obrazlilik, jargon, professionslizm kabi xususiyatlarni kasb etishi bilan bir qatorda, tushuncha, konsept sifatida o'z mazmun-mohiyatiga egaligi ham mazkur birliklarning qo'llanilish ko'lami, qolaversa, semantik maydonining naqadar kengligidan dalolatdir.

## XULOSA

Dunyo tilshunos olimlarining ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida jami 7 mingdan ortiq til mavjud. Jahondagi 7,5 milliard kishi muloqot qiladigan bu tillarning bor yo'g'i 1 % da, ya'ni 70 ta tilda dunyoning 90 % aholisi muloqot qiladi. Turkiy tillar ichida o'ziga xos o'rni, shakllanish va taraqqiyot tarixi hamda nufuziga ega milliy tilimiz hisoblangan o'zbek tili ham dunyo aholisi ko'p gaplashadigan tillar qatorida bo'lib, tilimiz yuqoridagi 1 % ning tarkibidan o'rin olgan. Darhaqiqat, hozirda dunyo miqyosida 50 milliondan ortiq kishi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa 55 millionga yaqin kishi o'zbek tilida so'zlashadi [16]. Garchi o'zbek tili lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar munosabati bilan davr talabiga javob beradigan izohli lug'at yaratish zarurati kelib chiqib, akademik A.Hojiyev rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining bir guruh lug'atshunoslari tomonidan 2006-2008-yillarda 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" tuzilgan hamda nashr etilgan bo'lsada, unda 80 ming so'z jamlangan xolos. Mazkur lug'atda 80 mingga yaqin o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan so'z va so'z birikmalari, fan, san'at, madaniyat va texnika sohalariga oid atamalar, shevalarda qo'llanadigan hamda tarixiy so'zlar mavjud [17]. Biroq, yuqorida tilga olingan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da jamlangan so'zlar miqdori yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish munozaralidir. Chunki taniqli tilshunos olim, professor A.Rustamov fikriga ko'ra o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'zlarimizning miqdori 500 000 (besh yuz ming) dan kam emas [18].

Tilimizda mavjud so'zlarni semantik jihatdan puxta o'rganish va til birligi sifatida leksema, nutq birligi sifatida esa so'zlarning ma'no sathini ilmiy tadqiq qilish mantiqiy aniqlik va mukammallikni o'rtaga chiqaradi. Nutqda ifodalovchi ma'no, tushuncha va nominativ funksiyasiga ko'ra so'z qo'llash me'yorlariga rioya qilish, aniqlikni ta'minlash har jihatdan jamiyat oldiga qo'yilgan maqsad sari intilishda taraqqiyotni kafolatlaydi. XVII asrda yashab ijod etgan mashhur fransuz faylasufi Rene Dekart ta'kidlaganidek: "Agar siz so'z ma'nolarini aniqlab olsangiz, dunyoni yarim chalkashliklardan xalos qilgan bo'lasiz".

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi – Toshkent: O'zbekiston, 2002. 232-bet. (Nurmonov A. History of Uzbek linguistics - Tashkent: Uzbekistan, 2002. p. 232.)
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari – Toshkent: Fan, 1985. 5-bet. (Begmatov E. Lexical layers of modern Uzbek literary language - Tashkent: Science, 1985.p. 5.)
3. Qobuljonova G. O'zbek tilida metaforaning lingvistik talqini. NDA.– Toshkent, 1999. 4-bet. (Qobuljonova G. Linguistic interpretation of metaphor in Uzbek. NDA. - Tashkent, 1999.p. 4.)
4. Suyunova R.A. O'zbek tilida metonimiya. NDA.– Samarqand, 2001. 8-bet.(Suyunova R.A. Metonymy in the Uzbek language. NDA. - Samarkand, 2001.p. 8.)
5. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, 2010. 68,74-bet.(Abduazizov A.A. Introduction to Linguistic Theory. Tashkent, 2010.pp. 68,74.)
6. Головин Б.Н. Введение в языкознание. Изд. "Высшая школа". М., 1977. с.72. (Golovin B.N. Introduction to linguistics. Publishing House "Higher School". М., 1977.p.72.)
7. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. Toshkent, 2007. 93-bet. (Yuldashev I., Sharipova O. Fundamentals of Linguistics. Tashkent, 2007.p. 93.)
8. Kronasser H. Handbuch der Semasiologie: kurze Einführung in die Geschichte, Problematik und Terminologie der Bedeutungslehre. – Heidelberg, 1952. 18 s. (Kronasser H. Handbuch of Semasiology: Curriculum Einführung in die Geschichte, Problematik und Terminologie der Bedeutungslehre. - Heidelberg, 1952.p.18.)
9. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2013. 81-bet. (Mahkamov N., Ermatov I. Annotated Dictionary of Linguistic Terms. Tashkent: Fan, 2013.p.81.)
10. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2016. 140-bet. (Ulugov N. Linguistic theory. Tashkent, 2016.p.140.)
11. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. FDU. F., 2021. 44-bet. (Muminov S. Socio-linguistic features of Uzbek communication behavior. FDU. F., 2021.p.44.)
12. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. Переводчик А.М.Сухотин под редакцией Р.О.Шор. – Москва: Юрайт, 2019. с. 23. (Sossyur F. de. Linguistics course. Translator A.M.Suxotin under the editorship of R.O.Shor. - Moscow: Yurayt, 2019.pp.23.)
13. Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari.-Toshkent, 1995. 141-bet. (Ne'matov X., Rasulov R. Fundamentals of Uzbek language system lexicology.-Tashkent, 1995.p.141.)
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A. Tahriri ostida. Toshkent, 2008. 566-bet. (Annotated dictionary 1of the Uzbek language. Edited by Madvaliev A. Tashkent, 2008.p.566.)
15. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent, "O'zME", 1995. 61,72-bet. (Hodjiev A. Explanatory dictionary of linguistic terms.-Tashkent, "UzME", 1995. pp. 61,72.)
16. <https://kun.uz>news>2020/06/26>
17. <https://uzreport.news.society.ozb...>
18. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

(Taqrizchi: S.Mo'minov – Filologiya fanlari doktori, professor).